

# Rossiya Prezidenti O'zbekiston xalqini Navro'z bayrami bilan tabrikladi



21-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida Rossiya Prezidenti davlatimiz rahbari va O'zbekistonning ko'p millatli xalqini bahor va yangilanish bayrami – Navro'z bilan samimiylab, farovonlik va ravnaq tiladi.

Yetakchilar mamlakatlarimiz o'rtaida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi bilan ham bir-birini chin yurakdan qutladilar.

Keyingi yillarda O'zbekiston-Rossiya hamkorligi misli ko'rilmagan yuksak – strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga chiqqani mammuniyat bilan ta'kidlandi.

Amaliy hamkorlikning samarali mexanizmlari faoliyat yuritmoqda, uning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha yaqin muloqot yo'lga qo'yilgan. Tovar ayirboshlash barqaror oshib bormoqda. O'tgan yil yakunida o'zaro savdo ko'rkatkichi 7,5 milliard dollarga yetdi, joriy yil boshidan esa 50 foizga ortdi.

Ustuvor investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Rossianing mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalari hajmi qariyb 10 milliard dollarni tashkil etmoqda. Ikki mingdan ziyod qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda.

Rossianing nufuzli delegatsiyasi shu hafta poytaxtimizda bo'lib o'tadigan Toshkent Xalqaro investitsiya forumi ishida ishtirok etishi kutilmoqda.

Faol madaniy-gumanitar almashinuv davom etmoqda.

Muloqotda savdo, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi kabi muhim sohalarda, shu jumladan O'zbekiston va Rossiya hududlarining yetakchi korxonalarini jalb qilgan holda ko'p qirrali ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash istiqbollari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat vazirlik va idoralarining oliy darajada erishilgan kelishuvlarni keng ko'lamda amalga oshirish bo'yicha faol aloqalari va o'zaro muvofiqlashgan ishini davom ettirish muhim ekani qayd etildi.

Mintaqa va xalqaro kun tartibidagi masalalar, shu jumladan Ukraina atrofida yuzaga kelayotgan vaziyat yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston va Rossiya Prezidentlarining telefon orqali muloqoti har doimgidek do'stona va ishonch ruhida o'tdi.

**Manba**